

XXSR SIYOSIY JARAYONIDA POLVONNIYOZ HOJI YUSUPOVNING SIYOSIY FAOLIYATI

Murodova Ozoda Ikromjon qizi

Urganch davlat universiteti

Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti 1-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1536816>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Polvonniyoz Hoji Yusupovning tarixiy shaxs sifatidagi faoliyati, siyosiy qarashlari, jadidchilik g'oyalalarining mintaqada yuksalishiga, milliy davlat qurilishi jarayonlaridagi harakatlari berib o'tilgan. Maqolada Polvonniyoz Hoji Yusupovning XXSR dagi siyosiy faoliyati, qatag'on yillari va tarixiy merosi tahliliy tarzda yoritiladi.

Kalit so'zlar: jadidlar; Polvonniyoz Hoji Yusupov; islohot; XXSR; "Yosh xivaliklar" partiyasi; "Yosh xivaliklar tarixi" asari; xalq dushmani.

ПОЛИТИЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПОЛВАНИЁЗА ХАДЖИ ЮСУПОВА В ПОЛИТИЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ СССР

Аннотация. В статье рассматривается деятельность Полваниёза Хаджи Юсупова как исторической личности, его политические взгляды, возникновение идей джадидизма в регионе и его усилия в процессе национально-государственного строительства. В статье аналитически освещается политическая деятельность Полваниёза Хаджи Юсупова в СССР, годы репрессий, его историческое наследие.

Ключевые слова: джадиды, Полваниёз Хаджи Юсупов, реформа, СССР, партия «Молодая Хива», «История молодой Хивы», враг народа.

THE POLITICAL ACTIVITY OF POLVONNIYOZ HAJI YUSUPOV IN THE POLITICAL PROCESS OF THE USSR

Abstract. This article discusses the activities of Polvonniyoz Haji Yusupov as a historical figure, his political views, the rise of Jadid ideas in the region, and his actions in the processes of national state building. The article analytically covers the political activities of Polvonniyoz Haji Yusupov in the USSR, the years of repression, and his historical legacy.

Keywords: Jadids, Polvonniyoz Haji Yusupov, reform, USSR, "Young Khiva" party, "History of Young Khiva", enemy of the people.

KIRISH

1991-yil 31-avgustda O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan mamlakatimizda tarixiy haqiqat vaadolatni tiklash, ijtimoiy-siyosiy hayotda sovet mafkurasini va uning g'oyaviy qoliplaridan xalos bo'lish, boy tariximizni haqqoniy va xolisona yoritish imkoniyati tug'ilди. Tarixiy haqiqatni tiklash va uni xalqqa yetkazish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi hamda bu borada misli ko'rilmagan ishlarni amalga oshirishga kirishildi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan 1998-yil 26-iyunda bir guruh tarixchi olimlar bilan uchrashuvda belgilab berilgan maqsad va vazifalar bu borada g'oyat muhim o'rin tutdi.[1] Keyingi yillarda ham jadidlarning abadiy tarixi uchun bir qancha amaliy ishlar olib borildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "...Biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqr o'rganishimiz kerak.

Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab etadi” [2].

Hozirda tarix fani oldida turgan muhim vazifalardan biri, sovet hukmronligi davrida O'zbekistonda kechgan jarayonlarni chuqur tahlil qilish va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish g'oyatda muhim sanaladi. XX asr boshlarida Turkiston hududida ijtimoiy-siyosiy hayotda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Rossiya imperiyasi ta'sirida milliy uyg'onish harakati – jadidchilik shakllandi. Bu harakat o'zbek xalqi orasida ma'naviy yuksalish, zamonaviy ta'lif, matbuot, milliy davlat tuzilmasini barpo etish g'oyalarni ilgari surdi. Xususan, Xorazmda o'z so'ziga ega bo'lgan marifatparvarlar tomonidan tashkil etilgan “Yosh xivaliklar” harakati vakillari va ular bosib o'tgan shonli yo'li to'g'risida malumot beriladi.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqot metodologiyasi tarixiy-qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv kabi tadqqiqot usullariga asoslangan. Asosiy manba sifatida Polvonniyoz Hoji Yusupovning “Yosh xivaliklar tarixi” asaridan keng foydalanildi. Ushbu kitobda muallif o'z ko'zi bilan ko'rgan va guvoh bo'lgan, xonlikdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni, Yosh xivaliklar faoliyati va bu harakatga nisbatan xon ma'muriyatining munosabati xolislik bilan tahlil etilgan. Bu asarni tarixiy tahlili jarayonida Umid Bekmuhammadning “Yosh xivaliklar harakati: quvonchlar iztiroblar, fojealar” maqolasi Polvonniyoz Hoji Yusupovning yashagan davri tushunarli tarzda bayon qilingan.

Mustaqillik yillarda tarixiy manba va arxiv hujjatlar asosida xolis yoritilgan, hammualliflikda yaratilgan O'zbekistonning sovet mustamlakachiligi davri tarixiga bag'ishlangan, O'zbekistonning yangi tarixining ikkinchi kitoblari ham maqola uchun muhim manba bo'lib xizmat qildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yosh xivaliklar harakati XX asr boshlarida Xivada shakllangan jadidchilik harakatining bir oqimi sifatida vujudga keladi. Ularning faol kuchlari orasida Polvonniyoz Hoji Yusupov ham bor edi. Polvonniyoz Hoji Yusupov XIX asrning oxiri — XX asr boshlarida Xorazmda tug'ilgan (aniq sanasi ba'zi manbalarda 1878-yil deb ko'rsatiladi). U o'z davrining ziyoli vakillaridan biri bo'lib, yoshlik chog'laridayoq arab va fors tillarini mukammal o'rgangan, islomiy bilimlar bilan bir qatorda, dunyoviy bilimlarga ham katta qiziqish bilan yondashgan. Polvonniyozning shakllanishida Xorazmda kuchayib borayotgan jadidchilik harakati katta ro'l o'ynadi. U bu harakatning maqsadlari va vazifalari xususan, hududda xalq maorifi, adolatli boshqaruv va milliy ongni yuksaltirish yo'lida faol ishtirok eta boshladi. Jadid ziyolilari bilan yaqin aloqada bo'lgan Polvonniyoz Hoji Yusupov Xorazmda mustaqil va adolatli jamiyat qurishga intildi.

Polvonniyoz Hoji Yusupov zamonaviy maktablar ochilishini, savodsizlikka qarshi kurashishni, gazeta-jurnallar orqali xalqni uyg'otishni harakatlarining markaziga qo'ydi. Uning siyosiy tafakkuri va yurtparvarlik g'oyalari XX asr boshlaridagi Xorazmning o'ta murakkab siyosiy manzarasi fonida shakllandi. Rossiya imperiyasi va keyinchalik Sovet davlati bosimi ostida bo'lgan mintaqada o'z milliy manfaatlarini himoya qilgan shaxs sifatida u jadidlar orasida alohida o'rinn tutdi.

Polvonniyoz Hoji Yusupov 1914-yilda Xivada “Yosh xivaliklar” partiyasining asoschilaridan biri bo‘lib, bu partiya orqali jadidchilikning ilg‘or g‘oyalarini jamiyatga tatbiq qilishga intildi. Xiva xonligi ma’rifatparvarlari va rahbarlari, jumladan, Bobooxun Salimov, Polvonniyoz Hoji Yusupovlar tashabbusi bilan Yangi Urganch, Qo‘ng‘irot, Gurlan, Shovotlarda yangi maktablar ochildi. Shuningdek bu borada, «Jamiyati xayriya» tashkilotining ham o‘rni muhim bo‘lib, u mablag‘ yig‘ib yangi maktablar tashkil etishdi. B.Salimov va B.Raximovlar boshlang‘ich maktablar uchun yangi darsliklar yaratdilar.[3]

Bu davrda Xiva xonligi podsho Rossiyasining protektorati ostida bo‘lsa ham, rasman monarxiya davlati edi. Xiva xonligida Asfandiyorxon va turkman urug‘-sardorlari cheklanmagan hokimiyatga ega edilar. U oliv hukmdor sifatida cheklanmagan huquqga ega edi. Musulmon ruhoniylari monarxiya tartibining ishonchli tayanchi edi. Ko‘p jihatdan xalq ommasiga o‘zining ta’siri bilan kuchli bo‘lgan bu musulmonlar hukmdor bilan xalq o‘rtasidagi mustahkam bog‘lovchi bo‘g‘in bo‘lib, jamiyatda hukmronlik ta’siri kuchli edi. Bu holat Xiva xonligida chuqur o‘zgarishlar bo‘lishi shart ekanligini ko‘rsatar edi. Natijada, bu borada jadidlar xususan, Polvonniyoz Hoji Yusupov ham mamlakatda o‘zgarishlar tarafdoi edi.

1917-yil 5-aprelida Xorazm tarixida ilk bor xalqni namoyishga chorlab, Asfandiyorxon saroyida uni manifest imzolashga, idorai marshrutiya –parlamentar kengash tuzishga majbur qiladi. Manifestga ko‘ra, Xivada xon boshchiligidagi konstitutsion monarxiya o‘rnatalishi, uning hokimiyati majlisda saylangan ruhoniylar va savdogarlar vakillaridan iborat 30-50 kishi va nozirlar kengashi tomonidan cheklanishi lozim edi. Xiva xoni boshchiligidagi konstitutsiyaviy tuzumi qaror topganligi xalqqa ma’lum qilindi. Saylov yo‘li bilan deputatlar majlisi va Nozirlar kengashi tashkil topdi. Uning rahbarlari etib Yosh xivaliklarning yo‘lboshchilari Polvonniyoz hoji Yusupov, Xusaynbek Muhamadmurodovlar saylandilar. Xon manifestda ko‘rsatilgan ko‘pchilik masalalarda yon bergen bo‘lsada, bular vaqtinchalik bo‘lib, junbushga kelgan xalqni tinchlantirish uchun ataylab qilinganligini voqealarning keyingi jarayonlarida yaqqol ko‘rish mumkin.

Biroq, yetti oydan keyin idorai marshrutiya –parlamentar kengash Asfandiyorxon tomonidan tarqatib yuboriladi. Kengash a‘zolari qattiq ayblovlari bilan qamoqqa olindi. Bu siyosiy jarayonlar bayonini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, guvoh bo‘lgan Polvonniyoz Hoji Yusupov o‘zining “Yosh Xivaliklar tarixi” asarida bu haqida yozib qoldirgan.

Uning asarida keltirilishicha, 1918-yil 10-yanvarda Qo‘qon shahriga borib, u yerdagi Turkiston muxtoriyati hukumatidan ham yordam so‘rashgan. Lekin harbiy yordam berish imkoniyati bo‘lmasa bu hukumatlar ham Xiva xoni Asfandiyorxon va rus askarlari komissari Zaysevga zindonda yotgan Yosh xivaliklarni ozod qilib, To‘rtko‘lga o‘tkazib yuborish to‘g‘risida telegramma jo‘natish bilan cheklanadilar.

1920-yil fevral oyida Qizil Armiya yordamida Xiva xonligi ag‘darildi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasi e’lon qilindi. Bu voqealarning nafaqat siyosiy tizimni, balki butun mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasini ham o‘zgartirish jarayonining boshlanishi edi. Aynan shu o‘ta muhim davrda Polvonniyoz Hoji Yusupov respublika Nozirlar Kengashi raisi etib tayinlandi. Bu lavozimda u qisqa, biroq samarali faoliyat olib bordi.

Bu davrda Polvonniyoz Hoji Yusupov XXSR hukumatida matbuot ishlarini yo‘lga qo‘yishga alohida e’tibor berdi.

1920-yil mart oyidan boshlab respublikada birinchi “Inqilob quyoshi” nomi bilan o’zbek va turkman tillarida gazeta nashr qilina boshlandi. 1921- 1924 yillarda yana “Xorazm xabarlar”, “Qizil yoshlari ovozi”, “Ishchilar ovushi” o’zbek va turkman tillarida, “So’nggi axborot”, “Oq yo’l” gazetalari qozoq tilida, “Najot” fors tilida nashr qilindi.[4] Biroq, mamlakatda siyosiy beqarorlik, markaziy Sovet hokimiyatining bosimi, mahalliy elita o’rtasidagi ziddiyatlar kuchayib borayotgan edi. Bu esa uning islohotlarini to‘liq amalga oshirishga to‘sinqilik qildi.

XXSR hukumati rahbarlari olib borgan mustaqil siyosat sovet tuzumi va uning respublika hududidagi vakillariga yoqmadi. Chunki Polvonniyoz Hoji Yusupov boshliq hukumat xususiy mulk, vaqf yerlarini, diniy muassasalarini tarqatib yuborish o’rniga ularni saqlab qolish va mustahkamlashga harakat qilayotgan edilar. XXSRning Konstitutsiyasida ham xususiy mulk e’tirof etilgan edi. Bu narsa o’sha paytdagi sovet hukumatining Xorazmdagi vakillariga yoqmadi.

1921-yil 6-martda Xiva shahrida qizil askarlar tomonidan namoyish uyushtirilib, inqilobiy qo’mita tuzildi. Bolsheviklar XXSRning mustaqilligini cheklash va Markaz ta’sirida tutib turish maqsadida boshqaruvda kadrlar almashinuvini amalga oshirib, boshqa sovet respublikalaridan “tajribali” mutaxassislarini yuborib turdilar. XXSRning mahalliy rahbar kadrlaridan Polvonniyoz Hoji Yusupov, Bobooxun Salimov, Nazir Sholikorov, Otamaxsumoxun Muhammadrahimov, Menglixo’ja Ibniyaminov, Mulla Bekjon Raxmonov, Muhammadjon Abdalov, K.Nurullaevlar milliy manfaatlarni himoya qilib, respublikaning mustaqil siyosat yuritishi uchun kurashdilar.[5]

Faqatgina 1921-yil davomida uch marta (mart, sentabr, noyabrda) hukumat o’zgarishi yasalib, o’z xalqi milliy manfaatlarini yoqlab siyosat yuritgan Polvonniyoz Yusupov, M.Ibniyaminov, O.Muhammadrahimov bosh bo’lgan hukumat tarkiblari bekor qilindi, ularning rahbarlari asossiz qoralanib, ular og’ir jazolarga mahkum etildilar.[6] 1921-yil mart oyida Polvonniyoz Hoji Yusupov lavozimidan chetlashtirildi, u boshliq hukumat a’zolari qamoqqa olishga hukm qilindi. Biroq Polvonniyoz Hoji Yusupov yashirinishga ulgurdi. Qizil askarlar qo’liga tushmay qolgan nozirlar esa Junaidxonga qo’shildilar. Qonuniy saylangan yosh xivaliklar hukumati ag’darildi.[7]

XXSRda yangi Konstitutsiya qabul qilinib, keng ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar amalga oshirila boshlanadi. Lekin bu islohotlar mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatdan kelib chiqib emas, balki Moskva bolsheviklari andozasi va ko’rsatmasi asosida ko’r-ko’rona amalga oshirilgani bois aksariyat hollarda teskari natijalarini berar edi. XXSR 1924-1925 yillarda o’tkazilgan ma’muriy-hududiy davlat chegaralanishi natijasida tugatilib, yangi tuzilgan O’zSSR tarkibiga qo’shib yuboriladi. Hukumat tarkibiga kirgan a’zolari mamlakatda demokratik tuzumni o’rnatish, mustaqil davlatni barqarorlashtirish borasida katta ishlarni amalga oshiradilar.[8]

Bu esa jadidchilik harakatining siyosiy faoliyatini butunlay zaiflashtirdi. 1930-yillarga kelib, Stalin davrida boshlangan ommaviy qatag‘onlar Xorazm ziyorolarini ham qamrab oldi. Polvonniyoz Hoji Yusupovga ham “xalq dushmani”, “millatchi” kabi siyosiy tamg‘alar qo’yildi. Sovet tuzumi tomonidan “xalq dushmani” sifatida qatag‘on qilindi. U 1936-yil 14-mayda Xivada vafot etdi. O’zining “Yosh xivaliklar tarixi (Xotiralar)” nomli asarida u 1910–1924-yillardagi siyosiy voqealar, jadidlar kurashi va XXSR tarixi haqida bebaho ma’lumotlar qoldirgan.

XULOSA

Shunday qilib, xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Polvonniyoz Hoji Yusupovning hayoti o‘z xalqining ma’naviy-ma’rifiy va siyosiy uyg‘onishi yo‘lida fidoyilik bilan o‘tganini ko‘rish mumkin. Uning hayoti va siyosiy faoliyatni nafaqat o‘zi yashagan davrning, balki butun o‘zbek xalqining tarixiy hayotida muhim o‘rin egallaydi.

U milliy uyg‘onish, ta’lim va madaniyatni rivojlantirish uchun ko‘p mehnat qildi. Jadidchilik harakatining faol ishtirokchisi bo‘lishi, uning davrida olib borilgan siyosiy islohotlarga qo‘shtigan hissasi hamda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) raisi sifatidagi faoliyati bugungi kunda uni mustahkam tarixiy shaxs ekanligini ko‘rsatdi.

REFERENCES

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Тошкент: Шарқ, 1998.
2. Мирзиёев Ш.М. Ислом цивилизацияси маркази қурилиши билан танишувда билдирилган фикрлар. 21 декабр, 2018 йил. <https://www.gazeta.uz>.
3. Алимова Д.А. История как история, история как наука. 2 часть. – Ташкент: Узбекистан, 2009.
4. P. Hoji Yusupov. “Yosh xivaliklar harakati: quvonchlar iztiroblar, fojealar” // Nashrga tayyorlovchi Umid Bekmuhammad // ziyo.com.uz.
5. O.RASHIDOV O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO MUNOSABATLAR VA BAG‘RIKENGLIK o‘quv qo‘llanma Тошкент – 2022
6. Q. USMONOV, M. SODIQOV O‘ZBEKİSTON TARIXI (1917—1991-yillar) «SHARQ» TOSHKENT —2010.
7. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида(tuzuvchilar M.Jo’rayev, R.Nurullin, S.Kamolov va boshqalar). Т. “Sharq”-2000.
8. N.Oblomurodov, A.Hazratqulov, F.Tolipov, N.Tursunov “O‘zbekiston tarixi”— Toshkent, 2011.